



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i

ORCID: 0009-0001-4743-0118

E-mail: j.abdullayev@trm.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligi (DXSh) asosida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida amalda qo'llanilayotgan DXSh mexanizmlarining institutsional, iqtisodiy va boshqaruv jihatlarini tahlil qilinib, ularning oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishdagi imkoniyatlari va cheklolari aniqlangan. Xususan, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv, universitet avtonomiyasini kuchaytirish, moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikligi, oliy ta'lim, boshqaruv metodologiyasi, transformatsiya, universitet avtonomiyasi, investitsiya, boshqaruv samaradorligi.

Abstract. This article examines key directions for improving the governance methodology of Uzbekistan's higher education system based on public-private partnership (PPP). The study analyzes the institutional, economic, and managerial aspects of applying PPP mechanisms in higher education and identifies their potential and limitations in the context of sectoral transformation. In particular, result-oriented management, strengthening university autonomy, diversification of financing sources, and improvement of monitoring and evaluation mechanisms are substantiated as priority directions.

Key words: public-private partnership, higher education, governance methodology, transformation, university autonomy, investment, management efficiency.

Аннотация. В статье исследуются направления совершенствования методологии управления системой высшего образования Узбекистана на основе государственно-частного партнёрства (ГЧП). В said исследовании проведён анализ институциональных, экономических и управленческих аспектов применения механизмов ГЧП в высшем образовании, а также выявлены их возможности и ограничения в условиях трансформации отрасли. В качестве ключевых направлений обоснованы внедрение управления, ориентированного на результаты, расширение институциональной автономии университетов, диверсификация финансовых источников и совершенствование системы мониторинга и оценки.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, высшее образование, методология управления, трансформация, автономия университетов, инвестиции, эффективность управления.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyotning bilimlar iqtisodiyotiga o'tishi, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi va mehnat bozori talablarining o'zgarishi oliy ta'lim tizimini strategik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligi, inson kapitali sifatini oshirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish darajasi ko'p jihatdan oliy ta'lim tizimining samaradorligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'limni boshqarishda an'anaviy davlat tomonidan moliyalashtirish va markazlashgan boshqaruv modellari zamonaviy chaqiriqlarga to'liq javob berishi muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilish va uni transformatsiya qilish davlat siyosati darajasida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish, universitetlarning avtonomiyasini kuchaytirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat-xususiy sherikligi oliy ta'lim sohasida davlatning strategik maqsadlari bilan xususiy sektorning investitsion, innovatsion va boshqaruv salohiyatini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, DXSh asosida amalga oshirilgan oliy ta'lim loyihalari infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda universitetlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, DXSh mexanizmlarining samaradorligi ularni boshqarish metodologiyasining puxta ishlab chiqilganligiga bevosita bog'liq.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun davlat-xususiy sherikligi asosida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday metodologiya davlat, xususiy sektor va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tizimli ravishda tashkil etish, natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni joriy etish va oliy ta'lim sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada aynan shu masalalar tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida DXSh asosida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nazariy va amaliy asoslari xorijlik olimlardan E. Eskombe, E. Farquharson [1], D. Hall [2], R. Hemming [3], J. Delmon [4], F. Barrera-Osorio [5], H. Patrinos [6], R. Davies [7], E. Iossa, D. Martimort [8] va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lsa, MDH olimlaridan V.A. Kabashkin [9], V.G. Varnavskiy [10], E.A. Mokhortov, A.S. Semchenkov [11], E.A. Dinin [12], V.V. Maksimov [13]larning ilmiy ishlari DXShning dolzarb muammolariga bag'ishlangan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini shakllantirish, bevosita ta'lim xizmatlari, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimini rivojlantirish, DXSh mexanizmini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari respublikamizning iqtisodchi olimlaridan S.S. G'ulomov, Q.H. Abdurahmonov [14], Sh.N. Zaynutdinov [15], N.D. Rahimova, O.Q. Abdurahmonov, N.K. Zokirova [16], M.X. Saidov [17], M.Q. Pardaev [18], B. To'raev [19], N. Yusupov, F. Karabaev [20], U. Jumaniyazov [21], B. Ollanazarov [22], Q. Halmuratov [23], G. Sadullaeva [24] va boshqalarning asarlarida keng yoritiladi. Shuningdek, N. Yusupov va F. Karabaev UNDP loyihalari doirasida DXShning shakllanishi, B. Ollanazarov turizm sohasida DXSh asosida investitsiya mexanizmini takomillashtirish, U. Jumaniyazov esa uy-joy qurilishi sohasida DXSh asosida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, Q. Halmuratov Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan.

Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham oliy ta'lim tizimini rivojlantirish masalalarining ayrim jihatlarini o'rganilgan bo'lib, akademik S.S. G'ulomov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda, asosan, oliy ta'lim tizimining samarali boshqaruvini yo'lga qo'yish va bu tizimni xalqaro standartlarga muvofiq raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan [25].

Shuningdek, B.Yu. Xodiev esa oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy yangi o'quv adabiyotlarining ahamiyatini alohida ajratib ko'rsatadi. Ya'ni, buning uchun oliy ta'lim muassasalaridagi kutubxonalar faoliyatini o'zgaruvchan taraqqiyot muhitiga mos ravishda bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini [26] ta'kidlaydi. Milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda iqtisodchi olimlardan N. Yusupov va F. Karabaev BMT Taraqqiyot Dasturi doirasida DXShning shakllanishi va rivojlanishining ayrim nazariy-uslubiy masalalarini tadqiq qilganlar. Shuningdek, U. Jumaniyazov tomonidan esa DXSh asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan izlanishlar olib borilgan bo'lib, biroq ushbu ilmiy izlanishlarda oliy ta'lim tizimida DXSh mexanizmlarini samarali qo'llash va rivojlantirish istiqbollari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda samarali qo'llanilib kelayotgan DXSh asosida oliy ta'lim tizimiga xalqaro standartlarni joriy qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ammo, respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri bo'lgan DXShning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni to'laqonli aniqlanmaganligi, ayniqsa, oliy ta'lim xizmatlari, xususan, oliy ta'lim sohasida qaysi shart-sharoitlarda DXShni rivojlantirish, DXSh loyihalarining ko'lamli va davomiyliigi, turlari, amalga oshirishning institutsional, tashkiliy mexanizmlari, afzalliklari va kamchiliklarini o'rganish, tadbirkorlik subyektlarining davlat va oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqalarining zamonaviy sharoitlarga mos keladigan mexanizmlarini qidirib topish, oliy ta'lim sohasida DXSh tamoyillarini qo'llash samaradorligini, rivojlanish istiqbollari va tendensiyalarini aniqlash masalalari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha tadqiq etilmaganligi tanlangan maqola mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy ishni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mazkur ilmiy maqolamizni yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, ekonometrik modellashtirish usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligi (DXSh) mexanizmlarini joriy etish so'nggi yillarda jadallashgan bo'lsa-da, ularning boshqaruv metodologiyasi hali to'liq shakllanmagan.

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, amalda qo'llanilayotgan DXSh loyihalarini asosan infratuzilmaviy yo'nalishlarga — yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish, o'quv binolari va talabalar turar joylarini qurish, ayrim ta'lim xizmatlarini outsorsing qilishga qaratilgan.

Iqtisodiy tahlil natijalari DXSh mexanizmlari orqali oliy ta'lim sohasiga xususiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyati mavjudligini tasdiqladi. Biroq, investitsiya risklarini taqsimlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yagona metodologik yondashuvning yo'qligi xususiy sektor ishtirokini cheklashi mumkin. Ayniqsa, DXSh loyihalarini baholashda xarajat-foyda tahlili, ijtimoiy ta'sirni o'lchash va ta'lim natijalarini inobatga oluvchi ko'rsatkichlar yetarli darajada qo'llanilmayapti.

Boshqaruv samaradorligi nuqtayi nazaridan, tahlillar monitoring va baholash tizimining fragmentar xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. DXSh loyihalarini faoliyati ko'proq moliyaviy va qurilish ko'rsatkichlari asosida baholanib, ta'lim sifati, bitiruvchilarning mehnat bozorida joylashuvi va ijtimoiy samara kabi muhim indikatorlar yetarlicha hisobga olinmayapti. Bu holat DXShning oliy ta'lim tizimini kompleks transformatsiya qilishdagi rolini pasaytiradi.

O'tkazilgan tahlil asosida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun DXSh asosida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari aniqlandi.

Birinchidan, DXShni oliy ta'limni transformatsiya qilishning strategik instrumenti sifatida belgilaydigan yagona metodologik yondashuvni shakllantirish zarur. Bu yondashuvda davlatning strategik maqsadlari, xususiy sektorning investitsion salohiyati va universitetlarning akademik avtonomiyasi o'zaro uyg'unlashtirilishi lozim.

Ikkinchidan, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv (result-based management) prinsiplarini joriy etish DXSh loyihalarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Buning uchun ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy ta'sirni aks ettiruvchi KPI va indikatorlar tizimini ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu indikatorlar asosida monitoring va baholashni tizimli yo'lga qo'yish DXSh loyihalarining natijadorligini oshiradi.

Uchinchidan, universitetlarning DXSh loyihalaridagi institutsional rolini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalariga loyihalarni tashabbus qilish, sheriklarni tanlash va amalga oshirishda keng vakolatlar berish orqali ularni faol strategik sherikka aylantirish mumkin. Bu esa universitetlarning innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligi asosida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish infratuzilmaviy islohotlardan tashqari, boshqaruv, moliyalashtirish va ta'lim sifati sohalarida tizimli o'zgarishlarni talab etadi. Taklif etilgan yo'nalishlarni amalga oshirish DXShning oliy ta'limni kompleks transformatsiya qilishdagi samaradorligini oshirish va milliy oliy ta'lim tizimini barqaror rivojlanish bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligi mexanizmlari joriy etilayotgan bo'lsa-da, ular hozircha tizimli transformatsiyani ta'minlash darajasiga chiqmagan. Amaldagi DXSh loyihalarini asosan infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'lib, ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi va universitetlarning institutsional rivojlanishi bilan takomillashtirilmoqda. Bu holat DXShni oliy ta'limni boshqarishda strategik instrument sifatida qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu tahlil natijalaridan kelib chiqib, birinchi navbatda, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida DXShni rivojlantirish bo'yicha yagona, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv metodologiyasini shakllantirish zarur. Mazkur metodologiyada DXSh infratuzilmaviy vosita emas, balki ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi va inson kapitali rivojini ta'minlovchi strategik mexanizm sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv davlat siyosatining uzluksizligi va DXSh loyihalarining tizimli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, tahlil natijalari universitetlarning institutsional rolini kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi. Universitetlarga DXSh loyihalarini tashabbus qilish, sheriklarni tanlash va natijalar uchun javobgarlikni o'z



zimmasiga olish imkonini berish orqali ularni faol strategik sherikka aylantirish mumkin. Bu esa universitet avtonomiyasini kuchaytirish bilan birga, ta'lim xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, iqtisodiy va moliyaviy indikatorlar asosida DXSh loyihalarida risklarni adolatli taqsimlash va moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Xarajat–foyda tahlili, ijtimoiy ta'sirni baholash va moliyaviy barqarorlik indikatorlariga asoslangan yondashuv xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish va investitsiya jozibadorligini oshirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, tahlil natijalari DXSh asosidagi loyihalarni baholashda monitoring va baholash tizimini tubdan takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. KPI, ta'lim sifati indikatorlari, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi joylashuvi va ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlarini qamrab olgan kompleks indikatorlar tizimi joriy etilishi DXShning haqiqiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, tahliliy xulosa shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikligi asosida boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish faqat alohida mexanizmlarni emas, balki institutsional tuzilmalar, boshqaruv instrumentlari va natija indikatorlarini o'z ichiga olgan yaxlit tizimli yondashuvni talab etadi. Taklif etilgan yo'nalishlarni amalga oshirish DXShni oliy ta'lim tizimini kompleks transformatsiya qilishning samarali vositasiga aylantirish va milliy oliy ta'lim tizimining barqaror hamda raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principals of Policy and Finance. 2nd Edition. Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2.
2. David Hall., Why public-private partnerships don't work. The many advantages of the public alternative, Psiru, 2015.
3. Richard Hemming. Public-Private partnership. e IMF Institute and the Joint Africa Institute Tunis, Tunisia, February 28 – March 1, 2006.
4. Jeffrey Delmon. Public-Private Partnership Projects in Infrastructure. Cambridge University Press 978-0-521-15228-0.
5. Felipe Barrera-Osorio. The Impact of Public-Private Partnerships on Private School Performance: Evidence from a Randomized Controlled Trial in Uganda. Economic Development and Cultural Change. 2018. DOI: 10.1086/701229.
6. Patrinos, Harry Anthony. The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. © 2009 The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank.
7. Peter ED Love, Peter R Davis, Robert Chevis, David J Edwards. Risk/reward compensation model for civil engineering infrastructure alliance projects. Journal of construction engineering and management. 2011/2.
8. Iossa, E., & Martimort, D. (2015). The Simple Microeconomics of Public-Private Partnerships. Journal of Public Economic Theory, 17(1), 4–48. doi: 10.1111/jpet.12114.
9. Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. М.: Дело, 2010.
10. В.Варнавский. Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики. Мировая экономика и международные отношения, 2011, № 9.
11. Е.А.Махортов, А.С.Семченков. Государственно-частное партнерство как форма отношений власти и бизнеса в России. file:///D:/Downloads/gosudarstvenno-chastnoe-partnerstvo.pdf.
12. Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве / Дынин Е.А. // Общество и экономика. – 2007.
13. В.В.Максимова. Государственно-частное партнерство в транспортной инфраструктуре. Москва.2010. ISBN 978-5-9614-1143-0.
14. Гулямова С.С, Абдурахмонова К.Х. Образование и человеческое развитие: Мировая практика и опыт Узбекистана. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2004. – 170 с.
15. Рахимова Д.Н., Абдурахмонов О.К., Зокирова Н.К. Образовательный маркетинг и рынок труда. – М.: Сов. писатель, 2005. – 144 с.
16. Саидов М.Х., Перегудов Л.В. Менеджмент и экономика высшего образования. – Т.: Молия, 2001. – 252 с.
17. M.Q. Pardaev va H.N. Musaev umumiy tahriri ostida. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 259 b.
18. Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. – Т.: Фан, 2009.
19. Sadullaeva G.S. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 6-son, noyabr–dekabr, 2018.
20. Jumaniyazov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasi uchun diss. avtoreferati. – T.: TDIU, 2017. – 58 b.
21. Ollanazarov B. Davlat-xususiy sherikchiligi mexanizmi asosida turizm sohasida investitsion faollikni oshirish yo'nalishlari. // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2019. №1. 36–41-b.
22. Halmuratov Q. Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasi uchun diss. avtoreferati. – Nukus: QorDU, 2021. – 63 b.
23. Юсупов Н., Карабаев Ф. Теория и практика государственно-частного партнерства. Учебный модуль. / Под. редак. А.Э.Шайхова. – Т., 2013. www.undp.uz
24. Jumaniyazov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.f.d. ... diss. avtoreferati. – T.: TDIU, 2018. – 27 b.



25. Ирина И.А., Фанина Е.И. Современные тенденции развития высшего образования. // ISSN: 1991-5497. Мир науки, культуры, образования (электронный журнал). № 5 (96). 2022.
26. Фуломов С.С. Дистанционное экономическое образование. – Т.: Шарқ, 2004. – 203 с.
27. Xodiev B.Yu. Oliy iqtisodiy ta'lim tizimi uchun zamonaviy o'quv adabiyotlari yaratish: yangi standart talablari, tuzilishi, mazmuni. – T.: TDIU, 2005. – 168 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
